

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY RESURSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RISK-MENEJMENTI MEXANIZMINI TASHKIL ETISH

i.f.n., dots. Muxtarov Botir Abdusattarovich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
“Iqtisodiyot va turizm” kafedrasi dotsenti

To‘g‘izova Malika Soxib qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorida risk-menejment tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari, amaldagi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonlari, global iqtisodiy o‘zgarishlar va pandemiya sharoitida sug‘urta kompaniyalarining risklar bilan ishlash mexanizmlariga ehtiyoj ortib borayotgani ilmiy asosda yoritilgan. Sug‘urta bozoridagi ixtiyoriy va majburiy sug‘urta turlarining nisbati, hayot sug‘urtasining past ulushi, hududiy nomutanosibliklar kabi mavjud muammolar statistik ma’lumotlar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, anderrayting, investitsion jarayonlar, qayta sug‘urtalash va operatsion jarayonlarda uchraydigan risklar tasnifi va ularni boshqarishning xalqaro tajribaga asoslangan mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Xususan, Solvency II standartlari, riskga asoslangan kapital tizimi, aktuariy modellar, raqamli risk tahlili va qayta sug‘urtalash bo‘yicha ilg‘or amaliyotlarning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari asoslab berilgan. Maqola yakunida sug‘urta bozorida risk-menejment tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, risk-menejment, anderrayting, qayta sug‘urtalash, investitsion risklar, Solvency II, riskga asoslangan kapital, aktuariy modellar, iqtisodiy liberallashtirish, hayot sug‘urtasi, operatsion risklar, moliyaviy barqarorlik, raqamlashtirish, sug‘urta kompaniyalari.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni chuqurroq liberallashtirish va bozor mexanizmlarini yanada rivojlantirish sharoitida sug‘urta faoliyatini izchil isloh qilish hamda uni xalqaro standartlarga mos tarzda rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan turli o‘zgarishlar mamlakatlarda moliya siyosatini boshqarishda yangi instrumentlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Yaqin vaqtgacha 2008 yilda boshlangan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatlari haqida fikr yuritilar edi. 2019 yildan boshlab esa Xitoyda paydo bo‘lib, butun dunyoga tarqalgan Covid-19 pandemiyasi nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Globallashtirish va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining faollashuvi moliya bozori segmentlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi omillarni inobatga olgan holda samarali risk-menejment tizimini ishlab chiqishni talab qiladi. Ayniqsa, hayot sug‘urtasi bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar uchun mas’uliyat yanada oshib, moliyaviy resurslar bilan bog‘liq qator muammolar yuzaga kelishi

tabiiy hol hisoblanadi. Fikrimizcha, sug‘urtalovchi faoliyatidagi eng muhim vazifalardan biri risklarni to‘g‘ri baholashdir. Tashqi iqtisodiy muhitning o‘zgarishi sug‘urta kompaniyalarini risk-menejment mexanizmini samarali tashkil etishda yetakchi bo‘lishga undaydi. Buning uchun kompaniyalar mavjud sug‘urta zaxiralarini optimal darajada shakllantirish hamda investitsion faoliyatni diversifikatsiya qilish borasida oqilona qarorlar qabul qilishi lozim.

Mamlakatimiz sug‘urta bozorida risklarni boshqarish bo‘yicha hali katta tajriba to‘plangani yo‘q, biroq bu mexanizmni bosqichma-bosqich takomillashtirish sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan bir qatorda aksiyadorlar va sug‘urta qildiruvchilarning huquqlarini himoya qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalarida investitsion, operatsion, moliyaviy va boshqa yo‘nalishlardagi risklarni boshqarishga oid alohida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi zarur. Bugungi kunda risk-menejment tizimini samarali yo‘lga qo‘yish turli sohalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun ustuvor vazifa bo‘lib bormoqda. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, korxonalar keng qamrovli risk-menejment tizimini yaratishda faoliyatiga xos bo‘lgan bir nechta risk yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Sug‘urta faoliyatida risk-menejment — bu mijozlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hodisalar ehtimolligi va moliyaviy oqibatlarini baholash, ularni aniqlash va mazkur risklarni sug‘urta bozorida boshqa kompaniyalar o‘rtasida taqsimlashga qaratilgan jarayon sifatida tushuniladi.

Sug‘urta kompaniyalari risklarni boshqarishda quyidagilarga e‘tibor qaratishi lozim:

- kompaniya maqsadlariga mos bozor strategiyasi va qayta sug‘urtalash tartiblarini baholash;
- kapitalni samarali joylashtirish, yo‘qotishlarni kamaytirish va bozor talablariga mos riskga asoslangan narxlashga o‘tishni ta‘minlash;
- jarayonlarning samaradorligi va rentabelligini oshirish uchun mavjud talablarni to‘g‘ri inobatga olish.

Xalqaro sug‘urta nazorati assotsiatsiyasi sug‘urta kompaniyalarining bir qator asosiy risklarga duch kelishini ta‘kidlaydi. Umuman olganda, risk-menejmentning maqsadi kelajakdagi xatarlarni oldindan aniqlash, yo‘qotishlarning oldini olish yoki ularni minimal darajaga tushirishdan iborat. Sug‘urta kompaniyalari uchun risklarni boshqarish eng asosiy funksiyalardan biridir, chunki ular faoliyatning o‘zi risklarni baholash va qamrab olishga qaratilgan. Bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan biznes muhiti sharoitida kompaniyalar anderrayting, narxlash, da‘volarni boshqarish hamda investitsion risklarni kamaytirishda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ma‘lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanishga intilishmoqda. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalarida risklar ko‘pincha ichki jarayonlarning nomuvofiqligi yoki tashqi omillar ta‘siri natijasida vujudga keladi. An’anaviy risk menejmenti anderrayting risklari, zaxiralar va qayta sug‘urtalashning yetarliligi, investitsiya portfeli risklarini boshqarishga e‘tibor qaratadi. Sug‘urta shartnomasini tuzish yoki uni rad etish jarayonida risk darajasi va oqibatlari asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Sug‘urtalovchi avvalo mazkur majburiyatni

bajarganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar hajmini va ularni qoplash uchun zarur bo‘ladigan kapital miqdorini aniqlaydi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida ixtiyoriy sug‘urta ulushi 86 foizni, majburiy sug‘urta ulushi esa 14 foizni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda esa aksincha, majburiy sug‘urta turlari 50 foiz atrofida. Bundan tashqari, hayotni sug‘urtalash bo‘yicha mukofotlar boshqa davlatlarda umumiy sug‘urta mukofotlarining 50 foiziga teng bo‘lsa, mamlakatimizda bu ko‘rsatkich atigi 16 foiz. Bu esa sug‘urta bozorini kengaytirish, aholiga tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlillar, shuningdek, sug‘urta bozorida muhim muammolardan biri sifatida kompaniyalar va mijozlar o‘rtasida samarali kommunikatsiya yetishmasligi, xizmat ko‘rsatishning sekinligi hamda sug‘urta mukofotlarining katta qismi — taxminan 66 foizi — Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rsatmoqda.

Risk-menejmenti tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan sug‘urta kompaniyalari mazkur sohada tajribaga ega outsorsing tashkilotlarini jalb qilishi, xodimlar malakasini oshirishi lozim. Shuningdek, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, moliyaviy risklarni boshqarishning avtomatlashtirilgan mexanizmlarini yoki raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimlarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash bilan birga, inson omili ta‘sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Eshov, A.Burxanov, X.Xasanov, D.Baratova, J.Nosirov. Sug‘urta ishi asoslari. Darslik.-T.:”Ma’naviyat”,-2023. 486 b.
2. Q.M.Qo‘ldoshev. Sug‘urta texnologiyalari. Darslik.—T.: “Iqtisodiyot”,-2021. 338 b.
3. X.Shinnayev, I.Ochilov, S.Shirinov, I.Kenjayeov. Sug‘urta ishi. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Tafakkur bo‘stoni», 2014.
4. Muxtarov B. ANALYSIS OF THE DYNAMICS OF POPULATION INCOME GROWTH IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 30-39.
5. Burkhanov A. U., Yadgarov A. A., Tugizova M. S. Forecast Scenarios of the Development of Agricultural Insurance in Uzbekistan Based on Econometric Models Against the Background of Climate Change //Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS: Part B. – Emerald Publishing Limited, 2024. – C. 47-53.
6. Ko‘chimov A. et al. SUG ‘URTANING INVESTITSIYA FAOLIYATIGA MAKROIQTISODIY TA’SIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15300955> //Science technology&Digital finance. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 21-26.
7. Kamolov , D. (2025). VIRTUAL TURIZM (VR) XIZMATLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Scientific Practical Conference, 1(1), 372-374. <https://d-pressa.com/index.php/spc/article/view/264>